

DRAMATIK ASARLARDA XARAKTERLAR RANG-BARANGLIGI VA KONFLIKT KO'RINISHLARI

Islomov Jurabek

SamDu tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10673073>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Usmon Azim asarlari misolida dramatik janrda xarakter va konfliktga oid nazariy tushunchalarga oydinlik kiritiladi. Ijodkor qalamiga mansub "Abdulla Qahhor" va "Bozor" dramalaridagi dramatik xarakterlarlar misolida kolliziyaning konflikt darajasiga chiqishi jarayonlari tahlillarda ko'rsatilgan. Adabiyotshunoslikdagi konflikt turlariga oid nazariyalar umumlashrtirilib, xulosalaviy fikrlarga kelingan.

Kalit so'zlar: konflikt, kolliziya, real tarixiy asos, ziddiyatli kechinma, obraz psixologiyasi, biografik xarakter, tipik obraz.

Biz oldingi fasllarda dramaturgiyada lirizm muammosi masalasiga to'xtalganimizda ijodkorlar hayotining keskin lahzalari yoritilganligiga ko'ra mushtaraklik hosil qilib, adabiyotshunoslikda hatto dramatik trilogiya sifatida e'tirof etilgan asarlarning dastlabki ikkisi – "Kunduzsiz kechalar" hamda "Adibning umri" tahlillariga bir qadar to'xtalib o'tdik. Quyida ushbu asarlarning mantiqiy davomi deya baholangan Usmon Azimning yana bir asari, "Abdulla Qahhor" dramasi tahliliga e'tibor qaratmoqchimiz. Voqealar bayonida, obrazlarga munosabatda muallifningning tendiozligi yaqqol namoyon bo'lib turgan mazkur drama ham pafosiga ko'ra lirik jo'shqinlikdan xoli emas. Lekin epik, dramatik asarlar uchun birmuncha kamchilik hisoblangan bu xususiyat uning dramalarida o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Asarda o'zbekning ulkan adibi, haqiqatparvar inson Abdulla Qahhorning so'nggi kunlari tasviri beriladi. Fe'l-atvoridagi qat'iyat, birso'zlilik tufayli umr bo'yi faqat haqiqat bilan murosaga kela olgan adib o'ziga bir talay dushmanlar orttirib olganligi bois, hayotining so'nggi kunlarida, bemor paytida, ayrim shaxslar uning Kreml kasalxonasiga yotqizilmasligini tashkil qilib, maqsadlariga yetadilar. Shifo izlab rafiqasi bilan Moskvaga borgan adib mantiqsiz ravishda o'rtamiyona kasalxonaning ko'p kishilik palatasiga joylashtiriladi. Adib hayotiga daxldor ushbu adolatsizlik ko'pchilik shogirdlari qatorida drama muallifi Usmon Azimni ham ortiq darajada ta'sirlantirganligi tufayli mazkur asarda ushbu voqelikning birmuncha bo'rttirilgan, ko'ngilni xira qiluvchi tasviri jonlantiriladi: *"Oltmishinchi yillardagi kasalxonaning jaydari xalq uchun jihozlangan sakkiz kishilik palatasi. Ko'zga tashlanib turadigan g'ariblik. Temir karavotlar, tumbochkalar. Deyarli boshqa jihoz yo'q. Derazada qog'oz paketlarga o'ralgan*

kosa-tovoqlar, meva-chevalar". So'ng xonadagi kishilarni birma-bir sanar ekan, muallif ko'ngildagi g'ashlik tuyg'usi boisdan ularni ko'rinib turgan jismoniy yoki ruhiy qusurlari bilan Pakana, Daroz, Notavon, Asabiy tarzida nomlaydi. Hatto mudom pol yuvib sahnada ko'rinib qoluvchi sanitari ham Polina deb tanishtiradi. Dramada palatadagi, muallif ta'kidicha, ushbu "jaydari" kishilari bilan donishmand adibning hamxona bo'lishining o'zidayoq yuzaga keltirilgan kontrast, norasolik kuchayib boradi asardagi konfliktlarini yuzaga keliradi. Yozuvchi va uning atrofidagi kishilar timsolida qat'iyat va murasozlik, haqiqatparastlik va munofiqlik, fidoyilik va ko'zbo'yamachilik kabi tushunchalar qarama-qarshi turib, bor bo'yi bilan namoyon bo'ladi. Mazkur dramada badiiy to'qimalar, bo'rttirilgan tasvirlar birmuncha ko'zga tashlansa-da, sujetni tashkil qiluvchi asosiy voqelik real tarixiy asoslarga ega bo'lgani sabab muallifning boshqa dramalaridan ko'ra hayotga yaqin, dramaturg xarakterlar va asar konfliktlarini yuzaga keltirishda deyarli tayyor voqeliklarga asoslangan. Faqat asarda ular anchayin jo'shqinlik bilan tasvirlanadiki, aslida, bu ham dramatik turga oid asarlarning xarakterli xususiyatidir. Vaholanki, turli manbalarda keltirilgan nazariy asoslarda ham konflikt yaratishi uch adabiy turda farqlanishi aytilgan: "Yozuvchilar hayotdagi konfliktlarni badiiy asarda yana ham bo'rttiribroq, yorqinroq tasvirlashga harakat qiladilar. Bu qoidaga, ayniqsa, dramaturglar alohida e'tibor berdilar".¹ Konflikt haqida so'z yuritilar ekan, kolliziya atamasiga ham to'xtalmoq joiz. XIX asrda u konfliktning ekvivalenti² sifatida qo'llanilgani qayd etilsa-da, kolliziyaning konfliktga nisbatan torroq tushuncha ekanligi xususidagi fikrlar e'tiborni tortadi:³ "**Kolliziya** (lot. *collisio* — qarama-qarshilik, to'qnashish) — badiiy asarda xarakterlararo hamda xarakterlar bilan sharoit, muhit o'rtasidagi ziddiyat. Kolliziya konflikt atamasining sinonimi tarzida ham qo'llanadi. Kolliziya atamasini birinchi bo'lib Gegel estetika ilmiga olib kirgan. Uning aytishicha, kolliziya ziddiyatning ijtimoiy-tarixiy jihatdan keng ko'lamligi, yirikligi va konfliktning boshlanish nuqtasini, tugunni anglatadi. Kolliziya harakatga, mavzu rivojiga, xarakterning kurashga kirishishiga turtki beradi. Kolliziya asarning janriga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, yirik epik asarlarda kolliziya xarakter faoliyati va mavzu rivoji uchun turtki bo'lsa, lirikada lirik qahramonning ruhiy olamidagi ziddiyatli kechinmalarni ifodalaydi. Tragediyada kolliziya tragik konfliktni hosil

¹ Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2005. B.111.

² Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2005. B.110.

³ Дилмурод Куронов, Зокиржон Мамажонов, Машхура Шерапиева. Адабиётшунослик лугати/ ф.ф.д. Д.Куроновнинг умумий тахрири остида. - Тошкент: Akademiash, 2010 йил. – Б.138.

qilsa, hajviy asarlarda komik konfliktni yuzaga chiqaradi.⁴ Dastlab konfliktga sinonim sifatida ishlatilgan bu atama mohiyatan konfliktidan oldin yuzaga kelib, uning vujudga kelishi, rivojlanishi, eng yuqori cho'qqida o'zini namoyon qilguniga qadar xarakterlararo yoki obraz psixologiyasi yoxud jamiyat va shaxs orasida tushunmovchilik, norozilik, ziddiyat tarzida paydo bo'ladi va muqarrar to'nashuvlarning kelib chiqishida zamin vazifasini o'taydi. Mulohaza etilsa, dunyodagi qarama-qarshi qutblar to'nashuvi hech qachon birdan yuz bermaydi. Ularning har qanday ko'rinishining ham o'ziga xos tadriji borki, u ko'pgina sabab va oqibatlarni o'zida jo qiladi. Badiiy asarda esa ushbu jarayon kolliziya tushunchasi bilan beriladi. Fikrimizni "Abdulla Qahhor" dramasiidagi personajlar aro yuzaga kelgan konflikt asosida dalillaymiz. Chunki ko'pgina dramatik asarlarda uning aynan mazkur turi ko'proq ko'zga tashlanadi. Asarda yozuvchilar uyushmasi a'zolari: Rais, Professor, Tanqidchi, Adib hamda Abdulla Qahhor Rahbarning kitobi muhokamasiga yig'ilgan sahna. Asar muallifi kelmasdan avval hammaning kitob haqidagi fikrlari mushtarak. Adib "*Shunaqa ham bemaza yozadimi odam!..*"⁵ desa, Professor: "*Adabiyotning biror-bir qonuniyatiga to'g'ri kelmaydi*", deydi. Abdulla Qahhor esa "*Sog'ay desang suti yo'q, yulay desang, juni yo'q*", *shu kishi bo'lsalar kerak*" deb kuladi. Rahbar shaxs bo'lgan muallif kelgach esa vaziyat o'zgaradi –"adabiyot ahli" hisoblangan ushbu jamoat dastlabki, haqiqat bo'lgan fikrlaridan qaytib, "bemaza" deb ta'riflangan kitobni ko'kka ko'tarib ta'riflashadi, maqtovlar yog'dirishadi. Aniqroq aytganda, adabiyotga xiyonat ilishadi. Sababi xushomadgo'ylik, ojizlik, ikkiyuzlamachilik. Faqatgina Abdulla Qahhor o'zning dastlabki fikrida qolib, muallifga asarining bahosi haqidagi fikrlarini ro'y-rost bildiragandan keyingi holat dramada ancha obrazli tarzda quyidagicha ifodalanadi: "*Sukunat. Juda noqulay sukunat. Eslab uyalinadigan sukunat*".⁶

Aytish lozimki, asar sujetining ushbu qismida adib va yuqorida nomi keltirilgan adabiyot vakillari, xususan, Rahbar orasida kolliziya yuzaga keladi, ammo uning rivoji keskin konflikt darajasida namoyon bo'lmaydi. Bunga dramaning biografik xarakterda ekanligi ham sabab bo'lganligini aytish joiz. Dramaturg yuqorida nomi keltirilgan obrazlarni shunchaki mayda odamlar qabilida ta'riflab qo'ya qoladi. Faqat asarda A. Qahhorning yana bir adabiyot kushandasi, dramada adib tomonidan "*o'zbek adabiyotining jallodi*"⁷ deb ta'riflangan obraz Milchakov bilan yuzaga kelgan ziddiyatlari dramatik

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kolliziya>. Ushbu maqolada *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi* (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.

⁵ Усмон Азим. Адибнинг умри. Драмалар. Ўзгон номидаги нашриёт-матбаа уйи. Тошкент – 2011. Б.100.

⁶ Усмон Азим. Адибнинг умри. Драмалар. Ўзгон номидаги нашриёт-матбаа уйи. Тошкент – 2011. Б.105.

⁷ Усмон Азим. Адибнинг умри. Драмалар. Ўзгон номидаги нашриёт-матбаа уйи. Тошкент – 2011. Б. 117

vaziyatlarda ko'rsatiladi va bu kurash pirovard yozuvchining mutloq ustunligi bilan yakuniga yetadi – bir majlisda u Milchakovning barcha kirdikorlarini ayovsiz fosh etib tashlaydi. Mazkur voqeaning so'ngi dramada quyidagicha aks ettirilgan: *“Gulduros qarsaklar. Hamma bir-birini tabriklagan. Milchakov o'rnidan bir qo'zg'olmochi bo'ladi, ammo madori qurib, joyiga qayta shilqillab tushadi. Hamma uning yonidan ketadi. Ammo Kotiba bu olqishlarga qo'shilmayapti. U qarsakka qo'shilmayotganini sezgan rahbar ham tezgina qarsak chalishdan to'xtaydi. Birin-ketin Rais, Muharrir, Professor, Adib, Tanqidchi qarsak chalishdan o'zlarini tiyadilar. Ammo boshqalar jon-jahd bilan qarsak chalishda davom etadi”*⁸ Ushbu parchadan ham Rais, Muharrir, Professor, Adib, Tanqidchi kabi personajlar bilan yozuvchi orasidagi ziddiyat konflikt darajasida kuchli emasligini ko'rish mumkin. Lekin asarda oxir-oqibat xasta adibning Moskvada Kreml kasalxonasiga emas, jamoat kasalxonasida yotqizilgani bilan uning ma'nan mag'lub yashirin dushmanlarining “yiqilgan kurashga to'ymas” qabilidagi kirdikorlari ko'rsatiladi.

Ushbu dramada yuqorida ta'kidlanganidek, kollizziyaning personajlar orasidagi ko'rinishi bir qadar namoyon bo'lgan. Lekin Usmon Azim dramalarida qahramonlar ichki dunyosida, ruhiyatida yuz beradigan kolliziya tadrizji, konflikt ham mahorat bilan ko'rsatiladi. Hozirgi o'zbek dramaturgiyasida mavzusi, g'oyasi hamda obrazlar tizimining yangichaligiga ko'ra ajralib turuvchi “Bozor” dramasi misolida buni ko'rishimiz mumkin.

Dramadagi voqelarning XX asrning 90-yillariga tegishli ekanligi ilova qilingan bo'lib, bu davr O'zbekistonning mustaqillikka erishganining ilk yillari ekanligi barchamizga ma'lum. Ijtimoiy-siyosiy hayotning turli jabhalarida ko'plab o'zgarishlar, yangiliklar yuz berdi. Yillar mobaynida sotsialistik tuzumning davlat maoshiga qanoatlanib, qo'shimcha daromad manbalarini izlash, boyishga bo'lgan intilishni qoralash g'oyalari asoslangan iqtisodiy qarashlarining o'zgarishi birmuncha qiyin kechgan. Bugungi kunda bozor iqtisodi tushunchasi ommalashib, jamiyatda afzal jihatlarini ham ko'rsatib bo'ldi. Lekin mazkur asarda bozor iqtisodining adabiyot va san'atga ta'siri o'ta salbiy holat ekanligi: boyish ilinjida yaratilgan “asarlar”ning negizi yolg'ondan iborat bo'lishi, pulga alishtirilgan san'atning iste'dodli kishilarga tubanlik keltirishi, or-nomusini toptashi kabi masalalar ko'rsatib berilgan. Dramada ko'tarilgan muammolar mustaqillik davri adabiyoti va san'atida og'riqli holatlar sifatida haqiqatan ham jamiyatda yuzaga kelib, bugun kunga qadar davom etib kelayotgan muammolardandir. Bu esa adabiyot fidoiylari bo'lgan ko'plab

⁸ Usmon Azim. Adibning umri. Dramalar. F. Ullon nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent – 2011. B.117.

ijodkorlar va adabiyotshunos olimlarni tashvishlantirib kelmoqda. Istiqlol davri adabiyoti xususida ko'plab maqolalari orqali mulohaza va tanqidiy fikrlarini bildirib kelayotgan adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshevning quyidagi qaydlari ham bundan dalolat beradi: "...bozor munosabatari badiiy ijod sohasida ham namoyon bo'la boshladi. Natijada, xaridorgir, ommaning o'tkinchi talablariga mos keladigan asarlar yaratishga harakat kuchaydi. Shuning oqibati o'laroq, o'zbek adabiyotida erotik tasvirlar, sarguzasht yo'nalishidagi oldi-qochdi bitiklar ko'paydi"⁹

Mazkur dramada istiqlol davridagi o'zgarishlarini qabul qilishga intilayotgan kishilar obrazlarining yaratilganligi bilan xarakterli. Zero, bu davr adabiyotining yana bir o'ziga xos jihatlaridan insonning biror bir sinfning tipik vakili etib emas, orzu-armonlari, nuqson-u fazilatlariga ega shaxs sifatida talqin etilishidir. Bu xususda ham adabiyotshunos olimning fikrlari o'rinli ekanligini ta'kidlamochimiz: "**To'rtinchidan**, mustaqillik davr o'zbek adabiyoti biror ijtimoiy tuzumning afzalligini ko'rsatish, ishlab chiqarish munosabatlarini, siyosiy tizimlarni, takomillashtirishga emas, alohida inson shaxsining **ma'naviyatini** mukammallashtirishga yo'naltirildi. Bu hol badiiy qahramonlarni turli rakurslardan turib, eng ichkin va yashirin jihatlarigacha tadqiq etish imkoniyatini berdi. Shu sababdan ham istiqlol davri adabiyoti "aholisi" sezilarli darajada nozik, ingichka, o'ziga xos, betakror bo'lib bormoqda. Bu davr adabiyotida **tipik** obrazlarni emas, badiiy **tiplarni** tasvirlashga ko'proq intilayotganligining sababi ham shunda. Shu yo'sin, bu davr adabiyoti ommani ko'rsatishga emas, shaxsni tadqiq etishga yo'naltirildi"¹⁰ Mazkur dramadagi bosh obrazlarni ham asarda tasvirlangan davr uchun tipik deb bo'lmasa-da, insoniylik iztirob va sezimlarining chuqurligiga, yuksak maqsadlari tanazzuli qarshisidagi fojialari zalvoriga ko'ra badiiy tip darajasida ifodalangan deyish mumkin. Dramada markaziy obraz iste'dodli adib Erkin Ravshan bo'lib, qolgan obrazlarning barchasi ma'lum darajada ushbu xarakter orqali aytilmochi bo'lgan "gap"ni to'ldirishga xizmat qiladi. Dramada mazkur qahramonning ichki dunyosida paydo bo'lgan kolliziya rivojlanib boradi, buning konflikt sifatida namoyon bo'lishida shogirdi Mavlonning uning, obro'sini o'ylab bergan maslahatlari, xotini Sayyoraning boy xondonga quda bo'layotganini aytib, pul so'rab kelgani, yozuvchining ko'ngil qo'ygan ayoli san'atkor Oydinning ham o'zi kabi iste'dodining, shuningdek, or-nomusining sotilish arafasida turgani kabi bir qator sabablar ko'rsatiladi.

⁹ Қозоқбой Йўлдошев «Ёنيқ сўз». Тошкент, «Янги аср авлоди», 2006 йил. – Б.77.

¹⁰ Қозоқбой Йўлдошев «Ёنيқ сўз». «Янги аср авлоди», 2006 йил. Б.74-76.

Dramada personajlar boshdanoq ikki qutbda, ya'ni zamona zayli bilan paydo bo'lgan "puldor"- "xaridor"lar hamda nochorlik, nafs va boshqa omillarga ko'ra ularga tovar bo'lgan adabiyot va san'at ahli sifatida berildi. Ular orasida ushbu munosabatlarni bir qadar ziddiyat ham ifodalanadi, lekin u darajasida kuchli emas, oddiy bozor qoidalariga kabi, istahsa, ikki taraf ham bu savdoni davom ettirmasligi mumkin edi. Asardagi asosiy konflikt personajlarning fikrlari, ijtimoiy hayotda bo'lyotgan o'zgarishlarga qarashlarida tasvirlanadi va bu bilan dramada jamiyat va shaxs, inson ruhiyatidagi konfliktlar ham namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://akademiklar.uz/usmon-azim>
2. <https://akademiklar.uz/usmon-azim>
3. Усмон Азим. Танланган асарлар. Назм, наср, драматургия. "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. –Тошкент. – 2021, Б.630.
4. Усмон Азим. Уйғониш азоби: Шеърлар ва тарихий драматик қисса. – Т.; Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991 В.119
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. II tom (dabiy-tarixiy jaryon). Toshkent. "Fan" nashriyoti. 1979. В. 291
6. Хуршид Даврон. Самарқанд хаёли. Тошкент. "Камалак" нашриёти. – В.163.
7. Усмон Азим. Адибнинг умри. Драмалар. Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа уйи. Тошкент – 2011. Б.117.
8. Қозоқбой Йўлдошев «Ёниқ сўз». «Янги аср авлоди», 2006 йил. Б.75-76.

